

SHARH, TAHLIL, TALQIN: NAVOIYSHUNOSLIKDAGI UCH ATAMANING CHEGARALARI MASALASI

Rahmonova Maftuna O'ktamovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 26-maktab

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

+998886847444

rahmonovam448@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21918615>

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda navoiyshunoslikda eng ko'p qo'llaniladigan uchta atama -“sharh”, “tahlil” va “talqin” tushunchalarining mazmuni, tarixiy shakllanishi va o'zaro chegaralari tadqiq etiladi. Har uch atamaning arabcha o'zagi va mumtoz ilmdagi dastlabki ma'nolari aniqlanadi, ularning adabiyotshunoslik atamasiga aylanish jarayoni kuzatiladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotda bu atamalarning bir-birining o'rnida ishlatilishi natijasida yuzaga kelayotgan chalkashliklar misollar asosida ko'rsatiladi. Nazariy mulohazalar Alisher Navoiyning “Qaro ko'zum...” deb boshlanuvchi g'azali matla'i misolida amaliy tarzda tekshiriladi: ayni bir bayt ketma-ket sharh, tahlil va talqin usullarida o'qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, navoiyshunoslik, sharh, tahlil, talqin, tafsir, ta'vil, adabiyotshunoslik atamaları, germenevtika, iyhom, matn, ma'no.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются содержание, историческое формирование и взаимные границы трёх наиболее употребительных в навоиведении терминов -“шарх” (комментарий), “тахлил” (анализ) и “талкин” (интерпретация). Определяются арабские корни и первоначальные значения каждого термина в классической науке, прослеживается процесс их превращения в литературоведческие понятия. На конкретных примерах показаны смысловые смешения, возникающие вследствие взаимозаменяемого употребления этих терминов в современной научной литературе. Теоретические положения проверяются практически на примере матла газели Алишера Навои, начинающейся словами “Каро кўзум...”: один и тот же бейт последовательно прочитывается методами комментария, анализа и интерпретации.

Ключевые слова: Алишер Навои, навоиведение, комментарий, анализ, интерпретация, тафсир, таавил, литературоведческая терминология, гермевтика, ийхам, текст, смысл.

ABSTRACT

The article examines the meaning, historical formation and mutual boundaries of the three terms most frequently used in Navoi studies: sharh (commentary), tahlil (analysis) and talqin (interpretation). It identifies the Arabic roots and the original meanings of each term within classical scholarship and traces their transformation into literary-critical concepts. Drawing on concrete examples, it demonstrates the confusion produced by the interchangeable use of these terms in contemporary scholarship. The theoretical claims are tested through a practical reading of the opening couplet of Navoi's ghazal beginning “Qaro ko'zum...”, in which a single couplet is read successively by the methods of commentary, analysis and interpretation.

Keywords: Alisher Navoi, Navoi studies, commentary, analysis, interpretation, tafsir, ta'wil, literary terminology, hermeneutics, ihām, text, meaning.

KIRISH

Har qanday ilm sohasining pishiqligi uning atamalar tizimidan bilinadi. Agar bir hodisa turli olimlar tomonidan turlicha nomlansa yoki, aksincha, bitta soʻz bilan bir necha xil ish atalsa, bu soha hali toʻliq shakllanmagan degani.

Navoiyshunoslik -oʻzbek filologiyasining eng qadimiy va eng boy tarmogʻi. Unda yuz yildan ortiq vaqt davomida minglab maqola va oʻnlab monografiya yaratilgan. Shunga qaramay, bu sohaning eng oddiy va eng koʻp ishlatiladigan uchta atamasi - “sharh”, “tahlil” va “talqin” bugungi kunda ham aniq chegaralarga ega emas.

Bu uch soʻz oʻzbek tiliga tasodifan tushib qolgan emas. Ularning har biri arab tilidan oʻzlashgan boʻlib, mumtoz ilmda oʻz aniq oʻrniga ega edi. Vaqt oʻtishi bilan ularning maʼnolari oʻzgardi, kengaydi va bir-biriga yaqinlashdi. Shu bois atamalarning chegarasini aniqlash uchun avvalo ularning tarixiga murojaat qilish kerak boʻladi.

Mazkur maqolaning maqsadi -“sharh”, “tahlil” va “talqin” tushunchalarining mazmunini aniqlash, ular oʻrtasidagi chegaralarni belgilash va navoiyshunoslik amaliyoti uchun qulay atamaviy tartib taklif qilishdan iborat. Bu maqsad doirasida quyidagi vazifalar bajarildi: har uch soʻzning etimologiyasi va mumtoz ilmdagi maʼnosi aniqlandi; ularning adabiyotshunoslik atamasiga aylanish yoʻli kuzatildi; zamonaviy ilmiy adabiyotdagi qoʻllanish holati baholandi; farqlovchi mezonlar tizimi ishlab chiqildi; nazariy xulosalar bitta bayt misolida amalda sinaldi.

ASOSIY QISM.

“Sharh” arabcha “sharaha” feʼlidan yasalgan boʻlib, uning oʻzak maʼnosi -“ochmoq”, “yoymoq”, “kengaytirmoq”. Bu soʻz Qurʼonda ham uchraydi va u yerda koʻngilning kengayishi, ochilishi maʼnosida keladi. Demak, “sharh” tushunchasining eng chuqur qatlamida yopiq narsani ochish gʻoyasi yotadi.

Buni oddiy misol bilan tushuntiraylik. Yumshoq oʻralgan matoni yozib, uning naqshini koʻrsatish -sharh. Sharhchi matnga yangi narsa qoʻshmaydi, u faqat matnning oʻz ichida bor, ammo koʻrinmayotgan narsani koʻzga tashlanadigan qiladi. Mumtoz ilmda “sharh” mustaqil janr. Fiqh, mantiq, tibbiyot, aruz va adabiyot sohalarida yozilgan asosiy asarlarga sharhlar bitilgan, sharhlarga esa oʻz navbatida “hoshiya” (chekka izoh) va “taʼliqot” (qoʻshimcha qayd) yozilgan.

“Tahlil” arabcha “halla” feʼlidan yasalgan. Uning oʻzak maʼnosi -“yechmoq”, “bogʻichni boʻshatmoq”, “eritmoq”, “qismlarga ajratmoq”. Shu bois bu soʻz kimyo va tibbiyotda ham keng qoʻllanadi: qon tahlili -qonni tarkibiy qismlarga ajratib oʻrganish demakdir. Mumtoz ilmda “tahlil” soʻzi adabiy atama sifatida deyarli ishlatilmagan. U koʻproq diniy amaliyotda - kalimai tavhidni takrorlash maʼnosida qoʻllangan. Adabiy hodisalarni oʻrganishda esa mumtoz olimlar boshqa soʻzlarga -“sharh”, “bayon”, “tavzeh” kabi atamalarga murojaat qilishgan.

Demak, “tahlil” bugungi maʼnosida - matnni tarkibiy qismlarga ajratib oʻrganish maʼnosida - nisbatan yangi atamadir. U oʻzbek adabiyotshunosligiga XX asrda, asosan rus tili orqali Yevropa ilmiy anʼanasidan kirib kelgan va u yerdagi “analiz” tushunchasining oʻrnini egallagan. Yunoncha “analysis” soʻzi ham aynan “ajratish”, “yoyish” maʼnosini bildiradi -yaʼni ikki til ham bir xil tasavvurdan kelib chiqqan.

“Talqin” arabcha “laqqana” fe’lidan yasalgan bo’lib, uning o’zak ma’nosi -“og’zaki o’rgatmoq”, “yodlatmoq”, “ko’ngilga solmoq”. Bu so’zning mumtoz ma’nosi bugungi qo’llanishidan sezilarli darajada farq qiladi.

Tasavvuf amaliyotida “talqini zikr” degan tushuncha bor: murshid o’z muridiga zikr kalimasini og’zaki o’rgatadi, uni muridning qalbiga singdiradi. Bu shunchaki ma’lumot berish emas, balki ma’naviy holatni ko’chirish demakdir. Shuningdek, “talqin” so’zi dafn marosimi bilan bog’liq ma’noda ham qo’llangan.

Ko’rinib turibdiki, “talqin”ning dastlabki ma’nosida ikki muhim jihat bor: birinchidan, u og’zaki va shaxsiy; ikkinchidan, u bilim emas, balki tushunish va his qilishni uzatadi. Bugungi adabiyotshunoslikda bu so’z “interpretatsiya”, ya’ni matnga ma’no berish ma’nosida ishlatiladi. Bu ma’no o’zgarishi tasodifiy emas: har ikki holatda ham gap tayyor bilimni uzatish emas, balki tushunish tajribasini yaratish haqida ketmoqda.

Etimologik tahlil quyidagi manzarani beradi. “Sharh” -yopiqni ochish, ya’ni harakat matndan o’quvchiga qarab yo’nalgan. “Tahlil” -butunni qismlarga ajratish, ya’ni harakat matn ichiga qarab yo’nalgan. “Talqin” -ma’noni ko’ngilga solish, ya’ni harakat tushunuvchi ongida yuz beradi.

Demak, uch so’zning o’zagida uch xil tasavvur yotadi: ochish, ajratish va singdirish. Uch atamaning chegarasini tushunish uchun mumtoz ilmdagi yana ikki tushunchani -“tafsir” va “ta’vil”ni eslash zarur, chunki bugungi “sharh” va “talqin” aynan shu juftlikning davomchisidir.

“Tafsir” -matnning zohiriy, ya’ni tashqi, ochiq ma’nosini bayon qilish. U til qoidalari, lug’at va tarixiy ma’lumotlarga tayanadi. Tafsirchi o’z fikrini qo’shmaydi, u faqat matnda nima yozilganini aniqlaydi.

“Ta’vil” -matnning botiniy, ya’ni ichki, yashirin ma’nosiga qaytish. Bu so’zning o’zagida “asliga qaytarish” g’oyasi bor. Ta’vilchi matndagi ifodani uning chuqurroq ma’nosiga bog’laydi. Mumtoz ilmda ta’vilga qat’iy shartlar qo’yilgan: u matnning zohiriy ma’nosiga zid bo’lmasligi, til imkoniyatlari doirasidan chiqmasligi va asosli dalilga tayanishi lozim edi.

Navoiy asarlariga yozilgan lug’at va izohlar -“Abushqa”, Tole’ Imoniy Hiraviyning “Badoye’ ul-lug’at” asari, Mirzo Mahdixonning “Sangloh” asari -mumtoz sharhning eng aniq namunalaridir [19]. Ularda tadqiqotchi so’zni izohlaydi, misol keltiradi, ba’zan grammatik shaklni tushuntiradi. Ammo bu manbalarda g’azalning kompozitsiyasi, obrazlar tizimi yoki ma’noviy harakati haqida deyarli so’z yuritilmaydi.

Bu kamchilik emas, balki janrning tabiati. Sharh o’z oldiga qo’ygan vazifani to’liq bajaradi: u matnni o’qiy oladigan holga keltiradi. Undan keyingi ish - boshqa janrning ishi. Aynan shu yerda tahlil va talqin uchun o’rin ochiladi.

XX asr boshida o’zbek adabiyotshunosligi yangi ilmiy til yaratish zaruratiga duch keldi. Abdurauf Fitrat va uning zamondoshlari mumtoz atamalarni saqlab qolgan holda, ularga yangi mazmun berishga harakat qildilar [9]. Ammo 1930-yillardan boshlab bu jarayon uzildi va o’zbek adabiyotshunosligi atamalarining katta qismi rus tili orqali shakllana boshladi.

Aynan shu davrda “tahlil” so’zi “analiz” tushunchasining o’zbekcha muqobili sifatida keng qo’llanila boshladi. “Talqin” esa “interpretatsiya” o’rnida ishlatila boshlandi. “Sharh” so’zi esa asosan izohli nashrlar va lug’atlar bilan bog’lanib qoldi. Bu almashinuv tabiiy jarayon edi, ammo u atamalarning mumtoz ma’nolari bilan yangi ma’nolari o’rtasida bo’shliq qoldirdi.

Natijada bugungi kunda “sharh” so’zi ikki xil ma’noda ishlatiladi: birinchisi mumtoz janr nomi, ikkinchisi matn ostidagi izoh. “Talqin” esa uch xil ma’noda uchraydi: matnga ma’no

berish; sahna asarini ijro etish; va oddiy soʻzlashuvda biror narsani tushuntirish. Bir soʻzning bir necha maʼnoga ega boʻlishi tilda odatiy hol, ammo ilmiy atama uchun bu jiddiy nuqson.

Nazariy mulohazalarimizni amalda isbotlash uchun Alisher Navoiyning eng mashhur gʻazallaridan birining matlaʼsini olamiz:

Qaro koʻzum, kelu mardumligʻ emdi fan qilgʻil,

Koʻzum qarosida mardum kibi vatan qilgʻil.

Bu bayt tanlanishining sababi bor: unda mumtoz sheʼriyatning eng nozik sanʼatlaridan biri qoʻllangan boʻlib, u sharh, tahlil va talqin oʻrtasidagi farqni juda aniq koʻrsatib beradi.

Sharhlovchining vazifasi - baytdagi har bir soʻzning maʼnosini aniqlash va matnni tushunarli qilish. Ish quyidagi tartibda boradi.

“Qaro koʻzum” - qora koʻzli sevgilim. Mumtoz sheʼriyatda maʼshuqaga uning biror belgisi orqali murojaat qilish odatiy hol.

“Kelu” -kel va, keluvchi shakl; “u” bogʻlovchisi arab-fors taʼsirida qoʻshilgan.

“Mardumligʻ” -bu yerda kalit soʻz. “Mardum” fors tilida ikki maʼnoga ega: birinchisi - “odam”, “xalq”; ikkinchisi -“koʻz qorachigʻi”. Shunga koʻra “mardumligʻ” soʻzi ham ikki xil oʻqiladi: “odamiylik”, “insoniylik” hamda “koʻz qorachigʻi boʻlish”.

“Fan qilgʻil” -hunar, kasb qilgin; odat qilgin.

“Koʻzum qarosida” -koʻzimning qorasida, yaʼni koʻz qorachigʻida.

“Kibi” -kabi, singari. “Vatan qilgʻil” -makon tut, joylash.

Shu izohlarga tayanib baytning umumiy mazmunini bayon qilamiz: “Ey qora koʻzli sevgilim, kel, endi odamiylikni oʻzingga hunar qilgin va koʻz qorachigʻi kabi koʻzimning qorasida makon tut”. Sharhning vazifasi shu yerda tugaydi. U baytni oʻqiy oladigan holga keltirdi, ammo uning qanday qurilganini va nima uchun kuchli taʼsir qilishini tushuntirmadi.

Endi ayni shu baytni tahlil qilamiz, yaʼni uning tuzilishini va badiiy mexanizmini oʻrganamiz.

Birinchidan, baytning markazida iymon sanʼati turadi. Iymon -bu shunday sanʼatki, unda soʻz bir vaqtning oʻzida ikki maʼnoni beradi va ikkala maʼno ham kontekstga toʻliq mos keladi. “Mardum” soʻzining “odam” va “koʻz qorachigʻi” maʼnolari bu yerda bir-biriga qarshi emas, balki bir-birini quvvatlaydi. Shu bois bayt bir oʻqishda “insoniy boʻl” deb, ikkinchi oʻqishda “koʻzimning qorachigʻi boʻl” deb tushuniladi.

Ikkinchidan, baytda tovush va soʻz takrori tizimli qoʻllangan. “Qaro” -“qarosida”, “mardumligʻ” -“mardum” juftliklari matnni ichkaridan bogʻlaydi. Bunday takror sheʼrshunoslikda takrir sanʼati deb ataladi va u baytga yaxlitlik beradi.

Uchinchidan, baytda makon tasviri qiziq tarzda qurilgan. Birinchi misrada murojaat tashqariga - sevgiliga qaratilgan. Ikkinchi misrada esa makon torayadi va koʻz qorachigʻiga, yaʼni eng kichik nuqtaga aylanadi. Ulkan hissiyot eng kichik makonga joylashtiriladi - bu qarama-qarshilik baytning taʼsir kuchini oshiradi.

Toʻrtinchidan, “vatan qilgʻil” iborasi alohida eʼtiborga loyiq. “Vatan” soʻzi katta va jiddiy tushunchani anglatadi, ammo u eng kichik jismoniy makonga nisbatan qoʻllanmoqda. Bu - kutilmagan birikma va u baytga ohangdorlik bilan birga fikriy sigʻim ham beradi.

Beshinchidan, bayt aruzning hazaj bahri asosidagi vaznda bitilgan boʻlib, uning ohangi ravon va murojaat ohangiga mos keladi. Baytning gap tuzilishi ham murojaat shaklida: unda ikkita buyruq feʼli - “fan qilgʻil” va “vatan qilgʻil” bir-biriga parallel qoʻyilgan.

Ko‘rinib turibdiki, tahlil sharhdan tubdan farq qiladi. Sharh “nima yozilgan?” degan savolga javob beradi, tahlil esa “bu qanday yozilgan?” degan savolga javob beradi.

Uchinchi bosqichda tadqiqotchi baytning ma‘nosi haqida o‘z fikrini bildiradi. Bu yerda bir necha asosli talqin mumkin.

Birinchi talqin - insoniy-axloqiy. Bayt oshiqning sevgilidan iltimosi sifatida o‘qiladi: u sevgilidan avvalo insoniylik, mehr va vafo kutadi. Bu talqinda “mardumlig” so‘zining “odamiylik” ma‘nosi asosiy sanaladi va bayt ishq bilan axloq birligini ifodalaydi.

Ikkinchi talqin - psixologik. Sevgilining ko‘z qorachig‘ida joylashishi -sevgilining nigohida doimiy bo‘lish, uning e‘tiboridan chiqmaslik istagi. Bu talqinda bayt oshiqning e‘tiborga muhtojligini ifodalovchi nozik ruhiy holat tasviri sifatida o‘qiladi.

Uchinchi talqin - irfoni. Tasavvufiy o‘qishda ma‘shuqa -Haq jamoli, ko‘z qorachig‘i esa qalb ko‘zi. Bunda bayt solikning ilohiy nurni o‘z qalbida doimiy ko‘rish istagini bildiradi. Bu talqin uchun asos bor, chunki mumtoz g‘azalda ko‘z va nur obrazlari an‘anaviy ravishda ma‘naviy ko‘rish bilan bog‘lanadi [12; 13].

Bu uch talqin bir-birini inkor qilmaydi. Ular baytning turli qatlamlarini ochadi va birgalikda uning boyligini ko‘rsatadi. Ayni paytda har uch talqin ham matnga tayanadi: ularning hech biri baytda yo‘q narsani baytga yuklamaydi. Aynan shu -asosli talqinning bosh belgisi.

Amaliy misol muhim bir haqiqatni ko‘rsatdi: talqin bosqichida keltirilgan uchala fikr ham sharh bosqichida aniqlangan “mardum” so‘zining ikki ma‘noligiga tayanadi. Agar sharh bosqichi o‘tkazilmaganda, tadqiqotchi bu ikki ma‘nolikni sezmagan bo‘lardi va butun talqin yuzaki chiqqan bo‘lardi.

Xuddi shuningdek, tahlil bosqichida aniqlangan makon torayishi hodisasi psixologik talqin uchun bevosita dalil bo‘lib xizmat qildi. Demak, bosqichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik shunchaki tartib emas, balki mantiqiy zaruratdir: har bir keyingi bosqich oldingisining natijasidan oziqlanadi.

O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin.

Birinchi, “sharh”, “tahlil” va “talqin” atamaları arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ularning o‘zak ma‘nolarida uch xil tasavvur yotadi: ochish, ajratish va singdirish. Bu farq tasodifiy emas va u atamaviy chegaralarni belgilashda ishonchli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchi, mumtoz ilmda bu so‘zlarning ma‘nolari bugungisidan farq qilgan. “Tahlil” va “talqin” adabiyotshunoslik atamasi sifatida asosan XX asrda shakllangan, “sharh” esa mustaqil janr nomi sifatida uzoq tarixga ega.

Uchinchi, zamonaviy navoiyshunoslikda bu atamalar ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Bu chalkashlik to‘rt ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: nom bilan mazmunning mos kelmasligi, bosqichlarning almashib ketishi, atamaning ma‘no jihatidan bo‘shab qolishi va uslubiy sinonimiya.

Beshinchidan, uch bosqich bir-birini inkor qilmaydi, balki ketma-ket davom ettiradi. Sharh matnni o‘qiy oladigan qiladi, tahlil uning tuzilishini ochadi, talqin esa ma‘nosini belgilaydi. Bosqichlarni almashtirish yoki birini tashlab ketish tadqiqot sifatini pasaytiradi.

Oltinchidan, amaliy misol ko‘rsatdiki, talqin bosqichidagi xulosalar sharh bosqichida aniqlangan lisoniy faktlarga bevosita tayanadi. Demak, bosqichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik mantiqiy zaruratdir.

Yettinchidan, uch bosqichni nazariy jihatdan ajratish zarur bo‘lsa-da, amaliyotda ular bir-biriga o‘tib turadi. Hatto eng obyektiv ko‘ringan lug‘aviy izohda ham tanlov, tanlovda esa talqin

unsuri mavjud. Shu bois atamaviy tartib qat'iy devor emas, balki tadqiqotchi uchun yo'naltiruvchi xarita sifatida tushunilishi lozim.

Umuman olganda, atamalar masalasi shakliy masala emas. Aniq atama -aniq fikrning belgisi. Navoiy merosini o'rganishda ishlatiladigan so'zlarning aniqligi, oxir-oqibat, shoir haqida aytilayotgan fikrlarning ishonchliligini belgilaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. G'aroyib us-sig'ar // Mukammal asarlar to'plami. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987.
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn // Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
4. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon // Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. – Toshkent: Fan, 2000.
5. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois // Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
6. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat // Mukammal asarlar to'plami. 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Atoulloh Husayniy. Badoye' us-sanoye' / Forsiydan A. Rustamov tarjimasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1981.
8. Ahmad ibn Xudoydod Toroziy. Funun ul-balog'a / Nashrga tayyorlovchi A. Hayitmetov. – Toshkent, 1996.
9. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
10. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961.
11. Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983.
12. Is'hoqov Y. So'z san'ati so'zligi. – Toshkent: Zarqalam, 2006.
13. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
14. Haqqul I. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.
15. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
16. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2004.
17. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
18. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
19. Боровков А. К. Бадā'и' ал-лугат. Словарь Тали' Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961.
20. Бертельс Е. Э. Навои и Джамии. – Москва: Наука, 1965.
21. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1979.
22. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
23. Gadamer H.-G. Truth and Method. – London: Continuum, 2004.
24. Jauss H. R. Toward an Aesthetic of Reception. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1982.